## X. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI

**Foyda.** Hisobot ma'lumotlariga ko'ra, 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida iqtisodiyot tarmoqlaridagi korxona va tashkilotlar tomonidan 13 819,4 mlrd. so'm miqdorida yakuniy moliyaviy natija olindi.

2021- yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda, foyda hajmi 1 547,5 mlrd. so'mga yoki 9,5 %ga kamaygan.

**2022- yilning yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yakuniy moliyaviy natijalar**

| | *Foyda, zarar (-), mlrd. so'm* | *2021- yil yanvar-noyabriga nisbatan %da* |
|---|---|---|
| **Jami** | **13 819,4** | **91,0** |
| Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash | -16,8 | |
| Ishlab chiqaradigan sanoat | 13 773,0 | 89,3 |
| Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash | -198,0 | |
| Qurilish | 9,7 | 41,0 |
| Savdo | 198,4 | 124,1 |
| Tashish va saqlash | 9,5 | |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 5,9 | 2,4 m. |
| Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar | 12,2 | 77,2 |
| Professional, ilmiy va texnik faoliyat | 5,0 | 49,3 |
| Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish | 0,9 | 2,2 m. |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 27,1 | 100,6 |
| Boshqalar | -7,5 | |

Ijobiy moliyaviy natija (foyda)ning asosiy qismi ishlab chiqaradigan sanoat (13 773,0 mlrd. so'm), savdo (198,4 mlrd. so'm) va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni (27,1 mlrd. so'm) amalga oshiruvchi korxonalarga to'g'ri keldi.

2022- yilning yanvar-noyabr oylarida o‘tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda, foydaning asosiy o‘sishi "O‘zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati (519,8 mlrd. so‘m), "O‘zbekgidroenergo" aksiyadorlik jamiyati (135,2 mlrd. so‘m), O‘zbekiston elektrotexnika sanoati korxonalari (58,5 mlrd. so‘m) tarkibiga kiruvchi korxonalarga to‘g‘ri keldi.

**2022- yilning yanvar-noyabr oylarida hududlar kesimida yakuniy moliyaviy natijalar**

| | *Foyda, zarar (-), mlrd. so‘m* | *2021- yil yanvar-noyabriga nisbatan %da* |
|---|---|---|
| **Viloyat bo‘yicha:** | **13 819,4** | **91,0** |
| *shaharlar:* | | |
| Nurafshon | 13,1 | 187,3 |
| Olmaliq | 11 158,1 | 87,4 |
| Angren | -453,1 | |
| Ohangaron | 392,7 | 131,0 |
| Bekobod | 871,9 | 78,5 |
| Chirchiq | 987,2 | 129,2 |
| Yangiyo'l | 41,6 | 2,0 m. |
| *tumanlar:* | | |
| Oqqo‘rg‘on | 9,2 | |
| Ohangaron | 19,6 | |
| Bekobod | -3,5 | |
| Bo‘stonliq | 109,2 | 110,2 |
| Bo‘ka | 0,1 | 88,0 |
| Quyi Chirchiq | 0,5 | |
| Zangiota | 64,2 | 54,8 |
| Yuqori Chirchiq | 29,4 | 68,9 |
| Qibray | 307,2 | 2,3 m. |
| Parkent | 11,0 | 2,1 m. |
| Piskent | 9,5 | 108,7 |
| O‘rta Chirchiq | -3,9 | |
| Chinoz | -4,5 | |
| Yangiyo‘l | 98,9 | 88,8 |
| Toshkent | 161,0 | 119,8 |

Foydaning pasayishi "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati (-2049,6 mlrd. so‘m), "O‘zbekiston metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati (-346,7 mlrd. so‘m), O‘zbekiston Respublikasi yog‘-moy sanoati korxonalari uyushmasi (-2,7 mlrd. so‘m) tarkibiga kiruvchi korxonalarda kuzatilgan.

Hududlar kesimida foydaning asosiy qismi Olmaliq shahar – 11 158,1 mlrd. so‘m (jami foydaning 80,7 %i), Chirchiq shahar – 987,2 mlrd. so‘m (7,1 %), Bekobod shahar – 871,9 mlrd. so‘m (6,3 %) va Ohangaron shahar – 392,7 mlrd. so‘m (2,8 %) hissasiga to‘g‘ri keldi.

**Zararlar**. 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida 70 ta korxona va tashkilotlar 901,4 mlrd. so‘m zarar bilan faoliyatini yakunladi.

Zararning asosiy qismi "O‘zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati – 102,0 mlrd. so‘m (jami zararning 11,3 %i), O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi – 73,2 mlrd. so‘m (8,1 %), O‘zbekiston to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalari uyushmasi – 22,2 mlrd. so‘m (2,4 %) va O‘zbekiston Respublikasi yog‘-moy sanoati korxonalari uyushmasi – 10,6 mlrd. so‘m (1,2 %) tarkibiga kiruvchi korxonalar hissasiga to‘g‘ri keldi.

**2022- yilning yanvar-noyabr oylarida zarar ko‘rgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari**

*(jamiga nisbatan %da)*



**2022- yilning yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha zarar ko‘rgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari**

| | Korxonalar soni | Zarar summasi | |
|---|---|---|---|
| | | mln. so‘m | jamiga nisbatan %da |
| **Jami** | **70** | **901 416,1** | **100,0** |
| Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi | 1 | 12 196,3 | 1,4 |
| Ishlab chiqaradigan sanoat | 28 | 331 886,3 | 36,8 |
| Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni kondisiyalash | 7 | 448 299,6 | 49,7 |
| Qurilish | 3 | 5 549,9 | 0,6 |
| Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va motosikllarni ta’mirlash | 9 | 56 709,5 | 6,3 |
| Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 1 | 1 067,7 | 0,1 |
| Ko‘chmas mulk bilan opyerasiyalar | 2 | 2 691,8 | 0,3 |
| Boshqarish bo‘yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko‘rsatish | 3 | 288,0 | 0,1 |
| Boshqalar | 16 | 42 727,0 | 4,7 |

**2022- yilning yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha zarar ko‘rgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari**
*(jamiga nisbatan %da)*



Zararning asosiy qismi, ya’ni 448 299,6 mln. so‘mi (49,7 %) elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash hamda 331 886,3 mln. so‘mi (36,8 %) ishlab chiqaradigan sanoat sohalariga to‘g‘ri keldi.

**2022- yilning yanvar-noyabr oylarida hududlar kesimida zarar ko‘rgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari**

| | *Korxonalar soni* | *Zarar ko‘rgan korxonalarning ulushi, %da* | *Zarar summasi, mln. so‘m* |
|---|---|---|---|
| **Viloyat bo‘yicha:** | **70,0** | **100,0** | **901 416,1** |
| *shaharlar:* | | | |
| Nurafshon | 2,0 | 0,1 | 26,4 |
| Olmaliq | 1,0 | 1,6 | 14 240,7 |
| Angren | 15,0 | 56,8 | 512 441,8 |
| Ohangaron | 2,0 | 0,3 | 2 890,1 |
| Chirchiq | 4,0 | 4,6 | 41 515,6 |
| Yangiyo‘l | 3,0 | 1,2 | 10 399,3 |
| *tumanlar:* | | | |
| Oqqo‘rg‘on | 1,0 | 0,2 | 1 800,0 |
| Ohangaron | 1,0 | 19,3 | 173 844,7 |
| Bekobod | 1,0 | 0,6 | 5 022,3 |
| Bo‘stonliq | 4,0 | 1,2 | 10 512,4 |
| Zangiota | 9,0 | 4,7 | 42 424,1 |
| Yuqori Chirchiq | 5,0 | 0,9 | 7 839,0 |
| Qibray | 7,0 | 4,5 | 40 930,1 |
| Parkent | 1,0 | 0,0 | 176,7 |
| Piskent | 2,0 | 0,7 | 6 666,2 |
| O‘rta Chirchiq | 1,0 | 0,5 | 4 612,5 |
| Chinoz | 3,0 | 1,4 | 12 807,3 |
| Yangiyo‘l | 5,0 | 1,2 | 11 220,8 |
| Toshkent | 3,0 | 0,2 | 2 046,1 |

## Korxona va tashkilotlarning debitorlik va kreditorlik qarzdorligi holati[1)]

2022- yil 1- dekabr holatiga debitor qarzdorlikning umumiy hajmi 31 307,2 mlrd. so‘mni tashkil qildi, shundan muddati o‘tgani 409,2 mlrd. so‘mni yoki jami qarzdorlikning 1,3 %ini tashkil etdi.

Jami debitor qarzdorlik o‘tgan yilga nisbatan 2,6 marta ko‘paydi, muddati o‘tgan debitor qarzdorlik 2021- yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 20,2 %ga kamaydi.

Hududlar bo‘yicha ko‘rilganda, debitor qarzdorligi yuqori ko‘rsatkich Olmaliq shahar – 16 122,8 mlrd. so‘m (viloyat bo‘yicha jami debitor qarzdorlikning 51,5 %i), Bekobod shahar – 4 611,7 mlrd. so‘m (14,7 %), Qibray tumani – 1964,0 mlrd. so‘m (6,3 %) va Chirchiq shahar – 1 731,0 mlrd. so‘m (5,5 %) hissasiga to‘g‘ri keldi.

### 2022- yil 1- dekabr holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha muddati o‘tgan debitor qarzdorlikning tarkibi

| | *Jami, mlrd. so‘m* | *undan:* | | | *Ichki idoraviy qarzlardan tashqari qarzdorlik* |
|---|---|---|---|---|---|
| | | *xaridor va buyurtmachilar* | *etkazib beruvchi va pudratchilarga berilgan avanslar* | *ichki idoraviy* | |
| **Jami** | **409,2** | **379,7** | **10,7** | **10,1** | **399,1** |
| Ishlab chiqaradigan sanoat | 159,0 | 147,2 | 8,0 | 0,0 | 159,0 |
| Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni kondisiyalash | 169,5 | 162,4 | 2,5 | 0,0 | 169,4 |
| Qurilish | 1,0 | 0,6 | 0,0 | 0,4 | 0,6 |
| Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va motosikllarni ta’mirlash | 0,7 | 0,1 | 0,1 | 0,0 | 0,7 |
| Boshqarish bo‘yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko‘rsatish | 0,3 | 0,3 | 0,0 | 0,0 | 0,3 |
| Boshqalar | 78,7 | 69,1 | 0,1 | 9,7 | 69,1 |

[1)] *Budjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo‘jalik korxonalari, fermer va dehqon xo‘jaliklari, sug‘urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz.*

Monitoring qilinadigan xo‘jalik birlashmalarining 2022- yil 1- dekabr holatiga jami debitor qarzdorligi 23 065,0 mlrd. so‘mni yoki viloyat bo‘yicha jami debitor qarzdorlikning 73,7 %ini, shu jumladan muddati o‘tgani – 117,2 mlrd. so‘mni yoki mos ravishda 5,1 %ni tashkil qildi.

Monitoring qilinadigan xo‘jalik birlashmalarining eng ko‘p debitor qarzdorligi "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati – 15907,6 mlrd. so‘m (50,8 %), "O‘zbekiston metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati – 4454,9 mlrd. so‘m (14,2 %), "Issiqlik elektr stansiyalari" aksiyadorlik jamiyati – 1285,6 mlrd. so‘m (4,1 %), "Hududiy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyati – 780,7 mlrd. so‘m (2,5 %) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Monitoring qilinadigan xo‘jalik birlashmalarining debitor qarzdorlikdagi eng ko‘p o‘sishi “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatida – 9,4 barobar (14215,9 mlrd. so‘m), "O‘zbekiston metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati – 172,4 % (1871,0 mlrd. so‘m) va "Issiqlik elektr stansiyalari" aksiyadorlik jamiyati – 159,1 % (477,8 mlrd. so‘m) kuzatildi.

Debitor qarzdorlik "O‘zkimyosanoat" aksiyadorlik kompaniyasida "O‘zavtosanoat" aksiyadorlik jamiyatida – 12,7 %ga (- 53,1 mlrd. so‘m), "O‘zavtosanoat" aksiyadorlik jamiyatida – 278,7 martaga (- 1,4 mlrd. so‘m) kamaygan.

2022- yil 1- dekabr holatiga kreditor qarzdorlikning umumiy hajmi 16 224,1 mlrd. so‘mni, undan muddati o‘tgani 591,2 mlrd. so‘mni yoki jami kreditor qarzdorlikning 3,6 %ini tashkil etdi.

Jami kreditor qarzdorlik o‘tgan yilga nisbatan 126,6 %ni tashkil qildi, muddati o‘tgan kreditor qarzdorlik 2021- yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 35,0 %ga ko‘paygan.

Monitoring qilinadigan xo‘jalik birlashmalarining 2022- yil 1- dekabr holatiga jami kreditor qarzdorligi 5 593,7 mlrd. so‘mni yoki viloyat bo‘yicha jami qarzdorlikning 34,5 %ini, shu jumladan muddati o‘tgani – 8,3 mlrd. so‘mni yoki mos ravishda 0,1 %ni tashkil qildi

Muddati o‘tgan kreditor qarzdorlik hajmi 167,3 mlrd so‘mga kamaydi, shu jumladan “O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyatida – 67,5 mlrd so‘mga ko‘payib, viloyat bo‘yicha jami muddati o‘tgan kreditor qarzdorlikning 16,9 %ini tashkil etdi.

**2022- yil 1- dekabr holatiga vazirlik va idoralarning debitor qarzdorligi**
*(jamiga nisbatan %da)*




**2022- yil 1- dekabr holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha muddati o'tgan kreditor qarzdorlikning tarkibi**

| | *Jami, mlrd. so'm* | *undan:* | | | | *Muddati o'tgan qarzdorlikning ulushi, %da* |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | *yetkazib beruvchilar va pudratchilarga* | *Byudjetga to'lovlar* | *davlat maqsadli fondlariga to'lovlar* | *ichki idora-viy* | |
| **Jami** | **591,2** | **362,4** | **2,3** | **-** | **0,4** | **100** |
| Ishlab chiqaradigan sanoat | 33,9 | 12 | 2,2 | - | 0,2 | 5,7 |
| Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondisiyalash | 556,8 | 350,2 | 0,1 | - | - | 94,2 |
| Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va motosikllarni ta'mirlash | 0,3 | 0,1 | - | - | - | 0,1 |
| Tashish va saqlash | 0,1 | 0,1 | - | - | - | - |
| Boshqalar | 0,1 | - | - | - | 0,2 | - |

**Xo'jalik boshqaruv organlarida jami kreditor qarzdorlikning debitorlikka nisbatan o'sishi**

| | *Kreditor qarzdorlikning debitorlikdan oshishi* | |
|---|---|---|
| | *mlrd. so'm* | *debitorga nisbatan %da* |
| "O'zdonmahsulot" aksiyadorlik kompaniyasi | 121,5 | 47,5 |
| "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati | 1,4 | 93,5 |
| "O'zavtosanoat" aksiyadorlik jamiyati | 0,1 | 43,3 |

Jami kreditor qarzdorlikning debitor qarzdorlikdan oshishi "O'zdonmahsulot" aksiyadorlik kompaniyasi – 121,5 mlrd. so'm (47,5%), "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati 1,4 mlrd. so'm (93,5 %), "O'zavtosanoat" aksiyadorlik jamiyati – 671,5 mln. so'm (43,3) hissasiga to'g'ri keladi.

Bunday holatlar korxonalarning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir etishi mumkin.

Hududlar bo'yicha ko'rilganda, yuqori kreditor qarzdorlik miqdori Olmaliq shahar – 2 494,2 mlrd. so'm (15,4 %), Chirchiq shahar – 2 392,8 mlrd. so'm (14,7 %) va Qibray tumani – 1 964,1 mlrd. so'm (12,1 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Bunga qarama-qarshi, kreditor qarzdorlikning nisbatan past ko'rsatkichlarini Bekobod tumani – 1,7 mlrd. so'm (0,1 %), Yangiyo'l shahar – 47,6 mlrd. so'm (0,3 %) va Quyi Chirchiq – 59,0 mlrd. so'm (0,4 %) tumanida ko'rish mumkin.